

## SAMARQAND QOG'OZI TARIXIDAN

*Sh.Rashidov nomidagi SamDU Tarix fakulteti*

*4-kurs talabasi*

**Akmalov Xisravxon Ulug'bek o'g'li**

**Annotatsiya:** *Mazkur ilmiy maqola Samarqandda qog'oz ishlab chiqarilishi tarixi, Samarqand qog'ozining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, manbalardagi Samarqand qog'ozini haqida ma'lumotlar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Xitoy, qog'oz, Tsay Lun, Buyuk ipak yo'li, Samarqand, arab xalifaligi, ustaxonalar, Zarif Muxtorov, "Konigil Meros" korxonasi, turizm, amaliy san'at.*

**Аннотация:** *В данной научной статье описывается история производства бумаги в Самарканде, значение самаркандской бумаги. Также были проанализированы сведения о самаркандской бумаге из источников.*

**Ключевые слова:** *Китай, бумага, Цай Лунь, Великий шелковый путь, Самарканд, Арабский халифат, мастерские, Зариф Мухторов, «Конигил Мерос», туризм, прикладное искусство.*

**Resume:** *This scientific article describes the history of paper production in Samarkand, the importance of Samarkand paper. Also, information about the Samarkand paper from the sources was analyzed.*

**Key words:** *China, paper, Tsai Lun, Great Silk Road, Samarkand, Arab caliphate, workshops, Zarif Mukhtorov, "Konigil Meros", tourism, practical art..*

Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri - Buyuk ipak yo'li asrlar davomida tasavvurga sig'mas darajada insoniyat tamadduniga keskin burilish yasadi, mislsiz kashfiyotlarga sababchi bo'ldi. U nafaqat uzoq manzillar va elatlarni bir-biriga yaqinlashtirdi, balki turli g'oya va madaniyatlar o'chog'i va chorrahasiga aylandi. Tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirdi.

Ilm-fanning tarixan shakllanib, sayqal topib, taraqqiy etib borayotganligida qog'ozning o'rni juda ham katta. Qog'oz bu insoniyatning ilm-fanda erishgan yutuqlari, kashfiyotlariga asos bo'lgan eng buyuk kashfiyotlaridandir. Yozuv paydo bo'lgach, yozish uchun dastlab pigment, sopol taxtachalar, papiurus va bambukdan foydalanilgan. Keyinchalik, aniqrog'i mil.avv. I asrda xitoylik ixtirochi Tsay Lun tomonidan qog'oz kashf etildi. Qog'ozga qadar foydalanilgan buyumlar o'zining og'irligi va noqulayligi sababli yengilroq, uzoq davrlarga saqlanib turadigan materialga ya'ni qog'ozga ehtiyojni tug'dirgan edi. VII asrda qog'oz ishlab chiqarish Yaponiya, hamda Koreyada yo'lga quyilgan.

Savdo yo'llarida Xitoy chinni va shoyisi hamda hind ziravorlari qanchalik shuhrat qozongan bo'lsa, moziyning yaqin ming yilligiga qadar Samarqand qog'ozini ham Buyuk ipak yo'lida eng ko'p xarid qilinadigan noyob tovarga aylandi.

751 yilning iyul oyida Jambul shahri yaqinida joylashgan Talas daryosi bo'yida (hozirgi Qirg'iziston) Xitoy jangchilari O'rta Osiyoga bostirib kirdi.

O'sha davrdagi Samarqand hokimi Abu Muslim bosqinchilarga qarshi o'z qo'shnini yo'llab, dushmanni yer bilan yakson qildi va Samarqandga 20 mingdan ortiq xitoylik askarlarni asir sifatida olib keldi. O'z hayotlarini saqlash niyatida hunarmandlikdan xabardor xitoylik asir jangchilar mahalliy hunarmandlarga qog'oz ishlab chiqarish sir-sinoatlarini o'rgatdilar.

Shu vaqtdan boshlab Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. IX asrga kelib, ushbu tarmoq shahar hunarmandchiligining eng muhim jabhalaridan biriga aylandi. Asta-sekinlik bilan Samarqand qog'ozi butun sharq va g'arb bozorlarini ham egalladi. Ushbu mahsulotning turli xil navlari VIII asrdan XIX asrga qadar nafaqat O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda, balki Yevropaning ko'pgina davlatlariga dong'i ketdi. Sharq olamida Samarqand qog'ozlari Misr qog'ozi kabi keng omma tomonidan foydalanila boshlandi. Bunga ayniqsa IX-X asrlarga kelib, ko'pgina fors va arab tilidagi asarlar va qadimiy qo'lyozmalar aynan Samarqand qog'oziga yozilishi yaqqol misol bo'la oladi.

Mingyildan ortiq vaqt mobaynida o'z faoliyatini san'at darajasiga yetkazgan samarqandlik hunarmand-qog'ozgarlar dunyoda eng yupqa, silliq hamda siyohni ko'p shimmaydigan, o'ta chidamli noyob qog'oz turlarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratishdi. Jumladan oq rangli «Samarqand sulton qog'ozi» o'zining yupqaligi, silliqligi va yumshoqligi bilan boshqa qog'oz navlaridan alohida ajralib tursa, «Samarqand shoyi qog'ozi» sifat jihatdan undan qolishmasa-da, rangi och sariq - novvot rangda bo'ladi. «Mir Ibragimi» qog'oz turi yuzida oq rangdagi dumaloq shaklli suv tomchi izlari bilan qoplangan bo'ladi. «Nimkanop» turi esa ipak qoldiqlari hamda po'stloq tolalari bilan qorishtirib tayyorlangani uchun, u dolchin rangda bo'ladi. Ushbu qog'oz turlarini yaratishda xomashyo sifatida paxta, ipak va tut daraxti po'stlog'idan keng foydalaniladi. Asrlar davomida shaharning Siyob anhuri bo'yida ikki mingga yaqin suv tegirmonlari ishlab turgan va ularning 400 dan ortig'ida qog'oz ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan.

Shaharga tashrif buyurgan barcha olimu fuzalolar, tarixchilar va sayohatchi mehmonlar bu qog'ozning sifati va chidamliligidan hayratga tushishgan. Bunga isbot sifatida turli asrlarda yashab ijod etgan ba'zi tarixchi va yozuvchilarning Samarqand qog'oziga bergan ta'riflarini, yozma manbalardagi ma'lumotlarni qayd etib o'tishni lozim deb topdik.

Arab tarixchisi Al-Maqdisiyning (X asr) ma'lumotlariga ko'ra, Xorazmda ishlab chiqarilgan kamonlar, Shoshning sopol idishlari hamda Samarqand qog'ozlari Buyuk Ipak yo'lida ayirboshlanadigan mollar ichida eng mashhuri va bebahosi bo'lgan.

Ayrim tarixchilar masalan, Abu Mansur as-Sa'olibiy samarqandliklarga qog'oz yaratish sirini 751-yilda bo'lib o'tgan Talas vodiysidagi jangda asir tushgan

xitoyliklar o'rgatishgan, deb yozgan edi<sup>10</sup>. Boshqa olimlar esa samarqandliklar qog'oz yaratish sirini Talas jangidan ancha ilgari kashf qilganliklarini yozishgan. Tarixchi Said Muhammad al-Xanjiy arablar milodiy 650-yillari Samarqandga kelganlarida bu erda qog'oz ishlab chiqarishga moslashgan ustaxonalarini ko'rganliklarini yozgan. YUqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, shuni aytishimiz lozimki, Samarqandda bundan 1500 yillar ilgari yuksak navli qog'ozlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan<sup>11</sup>.

Adam Mets o'zining "Musulmonlar renessansi" asarida bergan ma'lumotlariga qaraganda, dastlab butun arab xalifaligini Samarqand, so'ngra Bag'dod qog'oz bilan ta'minlangan bo'lsa, X asrga kelib qog'oz ishlab chiqaruvchi korxonalar Damashq, Tiviriada (Falastin), Tripoli shaharlarida qog'oz ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yurita boshlagan<sup>12</sup>.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z esdaliklarida: "Eng yaxshi qog'oz Samarqandda ishlab chiqariladi. Qog'oz tegirmonining arig'i Konigildan oqib keladi. Konigil Siyoh Ob (Siyob) daryosi bo'yida ko'plab qog'oz tegirmoni bor edi", deb yozadi<sup>13</sup>. Bu qog'oz navlari turlicha bo'lgan. Ulardan birining nomi "qog'ozi abreshemiy" bo'lib, o'ta sifatligi, tozaligi, nafisligi bilan barchani o'ziga rom etgan. Ipakdan tayyorlangan bu qog'oz naviga, ayniqsa, yevropalik savdogarlar ko'proq xaridor bo'lishgan. Samarqandda tayyorlangan ikkinchi qog'oz navi "qog'ozi nimkatoniy" deb atalgan. Uni tayyorlashda ipak va kanopdan foydalanilgan. Bundan tashqari, Samarqandda qog'ozning yana bir necha, bizga noma'lum bo'lgan navlari ham ishlab chiqarilgan.

Arxiv materiallaridan, o'rta asrlar qo'lyozmalari, ilmiy-amaliy manbalardan unumli foydalangan samarqandlik tadbirkor Zarif Muxtorov qadimiy Samarqand qog'ozini qayta tiklashga kirishdi. 1998-yil 23-iyunda tadbirkor "Konigil meros" xususiy qog'oz ishlab chiqarish korxonasini ishga tushirdi. Korxonada ilk bor qo'lbola Samarqand qog'ozini paxta tolasidan tayyorlagan bo'lsa, keyinchalik u zig'ir, ipak tolasidan ham ishlab chiqara boshladi. Ushbu loyiha YUNESKO va Yaponiyaning JICA tashkiloti homiyligida amalga oshirilgan bo'lib, Samarqandda yo'qolib borayotgan qadimiy, an'anaviy xalq san'atini qayta tiklashni rivojlantirishga qaratilgan edi.

Samarqand qog'ozining qayta tiklanishi uchun deyarli 10 yildan buyon jon kuydirayotgan tadbirkor "Konigil meros" firmasi asoschisi Zarif Muxtorov oq qog'oz va Samarqand qog'ozini solishtirib ko'rib bu haqda shunday degan edi: "O'sha paytlarda Samarqandda tut navdasining po'stlog'i mag'zidan, ba'zan esa unga atirgul gulbargi sharbati qo'shib xo'shbo'y qog'ozlar ham ishlab chiqarilgan. Qog'ozning rangi och sariqdan to qizg'ish malla tulgacha bo'lib, ma'lumotlarga

<sup>10</sup> G'.R.RAHMONBERDIYEV, M.T.PRIMQULOV, YU.T.TOSHPO'LATOV, Qog'oz texnologiyasining asoslari. T.;2009-Y. 2-bet

<sup>11</sup> Berdimurodov A., Indiaminova Sh. Buyuk Ipak Yo'li. T.; "O'zbekiston" 2017. 77-bet

<sup>12</sup> Адам Мец. Мусулманский ренессанс. М.; 1973-г. с-372

<sup>13</sup> <https://meros.uz/object/samarqand-qogoz>

qaraganda, to‘q va zarg‘aldoq rangni hosil qilish uchun qog‘oz qorishmasiga turli nisbatda xina qo‘shilgan”. Korxonaga nufuzli davlat tashkilotlaridan maxsus buyurtmalar tushdi. Jumladan Fond Forum O‘zbekiston tashkiloti rahbariyati tomonidan Fransiyalik mehmonlarga “taklifnoma” yozish uchun 1000 dona Samarqand qog‘ozi varag‘ini tayyorlab berishga buyurtma tushgan edi. Bunday qog‘ozlardan samarqandlik rassomlar miniatyura chizishda, ta‘mirchilar esa qo‘lyozmalarni ta‘mirlash va tayyorlashda keng foydalana boshlanadilar.

Samarqand ipak qog‘ozining tiklanishi – “abadiy qog‘oz”ni yaratish, ya‘ni qo‘lyozmalar umrini ming yillarga uzaytirishga imkon beradi. Mustaqilligimiz sharofati bilan Samarqandning dunyoga mashhur bo‘lgan qog‘ozi yana dunyo yuzini ko‘rdi.

Hozirgi kunda “Konigil-Meros” hunarmandchilik dargohida Zarif Muxtorovboshchiligida mahallada istiqomat qiluvchi yoshlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Shaharning bir chetida joylashgan bu hunarmandlik markazi milliy qadriyatlarimize‘zosi sifatida qadimiy Samarqand qog‘ozlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yib, ajdodlarimizning bundan ming yillar ilgari ham o‘z hunar va san‘atlarini dunyoga ko‘z-ko‘z qilganliklarini isbotladilar. Bu esa maqtovgaga arzigulik sa‘yi-harakatlardir va Samarqandga keladigan har bir chet ellik mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda.